

MANBASHUNOLIKNING ASOSIY MASALALARI

Hadis ilmi maktabi

“Islom ilmlari” kafedراس mudiri

G‘aniyev Akmaljon Adxamjon o‘g‘li

Annotatsiya: *Ushbu maqolada manbashunoslikning turlari, yo‘nalishlari va har bir yo‘nalishning o‘z talablari haqida, o‘zbek manbashunosligining ilk bosqichi va hozir kun manbashunoslikning dolzarb masalariga to‘xtalib o‘tildi.*

Kalit so‘zlar: *islom, adabiyot, tarix, manba, ilmiy asar, manbashunoslik, matn, matnshunoslik, Ashshurbanapal, Pargimum, Iskandariya, kutubxona, arxiv.*

Hammamizga ma‘lumki, yozma manbalar yozuv paydo bo‘lishi bilan bog‘lik. Yozuvning paydo bo‘lishi esa eramizdan oldingi qadim zamonlarga borib taqaladi. Insonlar doim barcha narsani tushuntirib berishga vaqt va imkoniyat topa olmagach, ko‘rganda tushunib olishi uchun o‘sha narsa to‘g‘risidagi ma‘lumotni o‘ziga yozib qo‘yishga ehtiyoji tug‘ildi. Dast avval narsalarning hajmi, o‘lchovi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar yozilgan bo‘lsa, keyinchalik takomillashib, zamonlar va makonlar uzra axborot tizimini yaratuvchi asosiy omil vositasini o‘tadi. Yozuvlar takomillashgan sari ular tarmoqlarga, har bir tilga mos yozular ixtiro qilina boshladi. Ularda millatning diniy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini o‘zida mujassam qilgan manbalar paydo bo‘la boshladi. Ular ko‘paygan sari, ularni bir joyga jamlash, ularni saqlash va keyingi avlodga yetkazish mas‘uliyati tushdi. Qadimda, hammamizga ma‘lum bo‘lgan, Ashshurbanapal, Pargimum va Iskandariya kutubxonalari ana shuning amaldagi yaqqol namunalari hisoblanadi. Bu maqolamizda mana shu ishlar bilan shug‘ullanadigan soha “manbashunoslik sohasi” bo‘yicha ma‘lumotlarni siz azizlarga havola etamiz.

Avvalo manbashunoslik sohasining ta‘rifini to‘xtalib o‘tsak. Salimaxon Rustamiy quyidagicha ta‘riflaydi:

“Manabashunoslik – yozma manbalarni yig‘ish, qidirib topish, tartibga solish va ulardan ilmiy foydalanish yo‘llarini o‘rgatuvchi fan.¹”

Bu ta‘rifdan ma‘lum bo‘ladiki, manbashunoslik quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

1. Mavjud manbalarni bir joyga jamlash,
2. Yangilarini qidirib topish,
3. Jamlangan manbalarni tartibga solish,
4. Ulardan ilmiy foydalanish yo‘llarini o‘rgatish.

Manbashunoslik ham bajaradigan vazifasiga qarab, ikkita yo‘nalishga ajraladi:

1. Nazariy manbashunoslik
2. Amaliy manbashunoslik

Salimaxon Rustamiy ularga quyidagicha ta‘rif beradi.

“Nazariy manbashunoslik – Yozma manbalarning vujudga kelishi va ularda real tarixiy jarayonlarning aks ettirilishi qonuniyatlari. Fan sifatida uning mavzulari tarkibi va ularning joylashish o‘rinlarini belgilaydi. Manbalarni qanday qilib tartibga solish va turkumlarga ajratish asoslarini aniqlaydi. Manbalarni tadqiq qilish uslublarini o‘rganadi.²”

Demak manbashunoslik nazariyasi:

1. Manabalarining vujudga kelishi,
2. Ularda tarixiy jarayon aks etish qonuniyatlari,
3. Fan sifatida esa, qaysi mavzular doirasida bahs yuritishi-yu, u mavzularning joylashuv tartibi,
4. Manbalar qanday tartibga solinadi va qay yo‘sinda turkumlarga ajratilish asoslarini,

¹ Rustamiy Salimaxon Aliybeg qizi. Mumtoz filologiyaning nazariy asoslari. Toshkent.: Toshkent davlat sharqshunoslik institutining kichik bosmaxonasi, 2013. – B.16.

² Rustamiy Salimaxon Aliybeg qizi. Mumtoz filologiyaning nazariy asoslari. Toshkent.: Toshkent davlat sharqshunoslik institutining kichik bosmaxonasi, 2013. – B.5.

5. Manbalarni tadqiq, tahqiq etish uslublarining nazariy asoslarini, qonuniyatlarini o'rgatadi.

“*Amaliy manbashunoslik* esa– manbalarning alohida olingan sohasi, bo‘limi, davri yuzasidan ish olib borib, qo‘lyozmalar fondi, arxiv, muzey, kutubxonalarda adabiy (o‘zi ixtisoslashgan sohada yoki barcha sohadagi) yodgorliklarni to‘plash, saqlash, tavsiflash, keyingi ilmiy tadqiqot ishlari uchun ularni material sifatida tayyorlash bilan shug‘ullanadi.³”

Amaliy manbashunoslik yuqorida o‘rganilgan nazariyalar asosida ish olib boradi. Lekin bu nazariyalar, albatta, bevosita amaliy jarayon asosida paydo bo‘lib, shakillanib, rivojlanib borgan. Shuning uchun manbashunoslikning amaliy tomoni nazariyasidan ancha oldindan rivojlanib kelgan.

Manbashunoslik jamlagan, saqlayotgan manbalari turiga qarab 3 ta asoiy yo‘nalishlarga ajraladi. Ular:

1. Adabiy manbashunoslik,
2. Tarix manbashunosligi,
3. Fan sohasi – ilmiy asarlar manbashunosligi.

Yuqorida nomi zikr qilingan bu 3 tarmoq haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Qosimjon Sodiqov ular haqida shunday deydi:

“*Adabiy manbashunoslik (ya’ni, literaturnoe istochnikovedenie)* deganda adabiyot tarixining turli davrlarida yaratilgan yozma manbalarni, shoir va ijodkorlarning yohud muallifi noma’lum bo‘lgan badiiy asarlarning yaratilgan davridan boshlab, to hozirgacha ko‘chirilgan ko‘lyozmalarini, bosma nashrlarini, xalq og‘zaki ijodi asarlarini tanqidiy o‘rganib chiqish tushuniladi.”⁴

Ya’ni badiiy asarlar yozilgan manbalarni jamlash va ularni tadqiq qilish ishlari bilan shug‘ullanuvchi sohaga adabiy manbashunoslik deyiladi. Bu ishlar bilan shug‘ullanuvchi manbashunos uchun quyidagi bilim va malakalar talab qilanadi:

³ Rustamiy Salimaxon Aliybeg qizi. Mumtoz filologiyaning nazariy asoslari. Toshkent.: Toshkent davlat sharqshunoslik institutining kichik bosmaxonasi, 2013. – B.5.

⁴ Qosimjon Sodiqov. Matnshunoslik va Manbashunoslik asoslari. - Toshkent.: Toshkent davlat sharqshunoslik institutining kichik bosmaxonasi, 2013. – B.3. (210)

1. Manbalarning yozuvini o'qiy olishi va uning xususiyatlarini bilishi,
2. Ularning tili va xususiyatlarini bilishi,
3. Mumtoz adabiyot xususiyatlarini bilishi,
4. Tegishli terminalogiyalarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi.⁵

Tarix manbashunosligi tarix fani, ya'ni istoriografiyaning sohasidir. U o'tmishda yaratilgan tarix kitoblari, yilnomalar, rasmiy hujjatlarni manba nuqtai nazaridan tanqidiy o'rganish bilan shug'ullanadi.⁶

Tarixiy asarlarga oid manbalar bilan shug'ullanadi. Hozirgi kunda umumiy tarix manbashunosligidan islom tarixi va manbashunosligi alohida tarmoq sifatida ajralib chiqqani bu sohaga yana ham katta e'tibor bilan rivojlantirilayotganiga dalolat qiladi.

Fan sohasi manbashunosligi - Fanning bu tarmog'i *ilmiy asarlar manbashunosligi* bo'lib, u ilmiy manbaning mundarijasi va tuzilishi, asarning ilmiy ahamiyati, matn tarjimalari, talqini bilan shug'ullanadi.⁷

Adabiyot va tarix fanlari bilan birgalikda boshqa fanlar borasida ham juda ko'p asarlar bitilgandi. Qog'oz kashf qilinishi yozma manbalarning ko'payishi jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Barcha sohalarda ko'plab asarlar bitila boshladi. Ularni jamlab, yaxshi saqlab keyingi avlodga yetkazish majburiyati manbashunosli, ayniqsa, fan sohasi manbashunosligining rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Keyinchalik manbashunoslikning Adabiy manbashunoslik tarmog'i rivoj topdi. O'zbek manbashunosligi va mantshunosligi Alisher Navoiy asarlarini o'rganish asnosida rus mantshunosligi ta'sirida rivojlandi. Bu haqida Alimulla Habiibullayev va Mahmud Hasaniylar shunday degan:

“Hozirgi ma'nodagi o'zbek matnshunosligi, asosan, o'rta asrlar mualliflari, xususan Alisher Navoiy asarlarini kirill alifbosida nashr etish bilan

⁵ Rustamiy Salimaxon Aliybeg qizi. Mumtoz filologiyaning nazariy asoslari. Toshkent.: Toshkent davlat sharqshunoslik institutining kichik bosmaxonasi, 2013. – B.14.

⁶ Qosimjon Sodiqov. Matnshunoslik va Manbashunoslik asoslari. - Toshkent.: Toshkent davlat sharqshunoslik institutining kichik bosmaxonasi, 2013. – B.3.

⁷ Qosimjon Sodiqov. Matnshunoslik va Manbashunoslik asoslari. - Toshkent.: Toshkent davlat sharqshunoslik institutining kichik bosmaxonasi, 2013. – B.3.

bog‘liq holda rivojlandi. Bu nashrlarning yuzaga kelishi jarayonida matnshunoslikning yangi talablar darajasidagi

matn tayyorlash metodikasi, texnologiyasi, fanning kategoriya va prinsiplari o‘zbek matnshunoslari ishlariga kirib keldi va mustahkamlanib qoldi. Shunda ham, ular fan asoslari ustida emas, muayyan matnlar ustida izlanishlar olib borib, nazariy masalalarga izlanishlardagi ehtiyojlariga qarab yo‘l-yo‘lakay murojaat etganlar. Ammo, tan olish kerakki, juda katta miqyosdagi ishlar amalga oshirildi va juda ko‘p nazariy muammolar o‘z yechimini topdi.”⁸

O‘sha paytda olimlarimiz faqat shu sohaga chegaralangan doira ishlar olib bordilar. Garchi bu sohadagi ishlar o‘sha paytda mavjud tizim qonun qoidalariga-rus matnshunoslik tajribalariga suyanilgan bo‘lsada, olimlarimi manbalar bilan ishlashda duch kelgan muommolari hal qilishdagi tajribalari ularnikidan farq qiladi. Har bir manba bilan ishlash alohida metod, uslub talab qiladi va yakunda katta tajriba va ko‘nikma beradi. Mana shu ko‘nikmalar keyingi manbashunoslik ishlaridagi muommolarini bartaraf etishda uchun katta yordam beradi.

Xusola qilib aytadigan bo‘lsak, keyingi davrlarda esa manbashunoslikning boshqa sohalariga ham yetarlicha e‘tibor qaratilib, rivojlanishlar kuzatilmoqda. Adabiy manbashunoslik yoniga tarix manbashunosigi, undan keyin esa, islom tarixi va manbashunosligi sohaları qo‘shilgani bunga yaqqol misoldir. Manbashunoslik sohasida olimlarimiz tomonidan amalga oshirilgan amaliy jarayonda hosil bo‘lgan nazariy bilim va ko‘nikmalar tarqoq holda yotibdi. Ularni bir joyga jamlab, tartiblab, keyingi manbashunoslik ishlarida foydalanish uchun tayyorlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rustamiy Salimaxon Aliybeg qizi. Mumtoz filologiyaning nazariy asoslari. Toshkent.: Toshkent davlat sharqshunoslik institutining kichik bosmaxonasi, 2013. – B.115.

⁸ Махмуд Насаний, Алимудла Набибуллаев. Адабий манбашунослик ва Матншunoslikning nazariy masalalari – Toshkent.: Toshkent davlat sharqshunoslik institutining kichik bosmaxonasi, 2012. – B.6.

2. Qosimjon Sodiqov. Matnshunoslik va Manbashunoslik asoslari. - Toshkent.: Toshkent davlat sharqshunoslik institutining kichik bosmaxonasi, 2013. – B.217.
3. Mahmud Hasaniy, Alimulla Habibullaev. Adabiy manbashunoslik va Matnshunoslikning nazariy masalalari – Toshkent.: Toshkent davlat sharqshunoslik institutining kichik bosmaxonasi, 2012. – B.136.